



## I. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiyligi hajmi 12829,1 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,6 foizni, shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari 4259,4 mlrd. so'mni (108,3 foiz), yalpi chorvachilik mahsulotlari 8193,3 mlrd. so'mni (101,3 foiz), qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 153,3 mlrd. so'mni (108,2 foiz), baliqchilik xo'jaliklarida 23,5 mlrd. so'mni (106,0 foiz), ovchilik xo'jaligida 0,2 mlrd. so'mni (112,9 foiz), o'rmonchilik xo'jaliklarida 199,4 mlrd. so'mni (102,5 foiz) tashkil qildi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)  
hajmining taqsimlanishi, foizda**




**2022- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘sish sur’atlari**



Xususan yuqori o‘sish sur’atlari Nishon (108,1 foiz), Mirishkor (107,3 foiz), Yakkabog’ (105,8 foiz), Chiroqli (105,5 foiz), Qarshi shahar (104,0 foiz), Kasbi (103,2 foiz), Muborak (103,1 foiz), Qamashi (102,9 foiz), Koson (102,7 foiz), G‘uzor (101,6 foiz), Qarshi, Kitob va Shahrisabz tumanlari mos ravishda (101,1 foiz), Dehqonobod (100,7 foiz), tumanlarida va Shahrisabz shaharda (100,3 foiz), o‘sish kuzatildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar  
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**




Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiyligi hajmida Chiroqchi tumanining ulushi 14,9 foizni tashkil etdi va hududlar bo‘yicha yetakchilik qilmoqda, Koson tumani 9,0 foiz, Qamashi tumani 8,3 foiz, Kitob tumani 8,0 foiz, Nishon va Yakkabog‘ tumanida 7,5 foiz, Kasbi tumani 7,2 foiz, Mirishkor tumani 6,9 foiz, Qarshi tumani 6,8 foiz, G‘uzor tumani 6,1 foiz, Shahrисабз tumani 5,9 foiz, Dehqonobod tumani 4,3 foiz, ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rnlarni egalladi, eng kam ulush Shahrисабз (0,9 foiz) va Qarshi (0,8 foiz) shahlarida qayd etildi.

**2022- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi  
mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi**

	<i>mldr. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati %</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>12829,1</b>	<b>103,6</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	104,0	104,0
Shahrisabz	109,7	100,3
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	777,0	101,6
Dehqonobod	548,3	100,7
Qamashi	1069,9	102,9
Qarshi	877,4	101,1
Koson	1157,3	102,7
Kitob	1031,1	101,1
Mirishkor	890,4	107,3
Muborak	758,0	103,1
Nishon	962,8	108,1
Kasbi	916,6	103,2
Chiroqchi	1906,7	105,5
Shahrisabz	755,2	101,1
Yakkabog‘	964,7	105,8

**2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi  
mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**  
*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*



### DEHQONCHILIK



2022- yilning yanvar-iyunida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4259,4 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,3 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 34,2 foizni tashkil qildi.


**Hosil yig‘imi.** 2022- yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 162871 tonna sabzavot (100,4 foiz), 103472 tonna kartoshka (101,7 foiz), 35603 tonna oziqbop poliz (105,5 foiz), 53109 tonna meva va rezavorlar (101,2 foiz), 6932 tonna uzum (109,5 foiz) yig‘ib olindi. Bundan tashqari 608200 tonnadan ortiq don ekinlari (117,6 foiz) ishlab chiqarildi.

**2022- yilning yanvar-iyun oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


	<i>Fermer xo‘jaliklari</i>		<i>Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari</i>		<i>Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>
Don	491446	115,9	74858	95,4	41896	2,9 m.
Kartoshka	8560	108,0	93754	100,0	1158	13,8 m.
Sabzavotlar	19111	102,3	142074	100,1	1686	102,9
Poliz	11363	115,1	23985	100,9	255	2,6 m.
Mevalar va rezavorlar	18735	100,4	33597	100,6	777	183,3
Uzum	3889	117,4	2903	100,6	140	102,2

**2022- yilning yanvar-iyunida hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Don (tonna)**



**Kartoshka (tonna)**



## CHORVACHILIK



Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o'sishiga, ichki iste'mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to'inishiga imkon yaratdi.

2022- yilning yanvar-iyunida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 8193,3 mld. so'mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 101,3 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 65,8 foizni tashkil etdi.

2022- yilning 1- iyul holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,8 foiz (jami 1649,9 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 102,8 foiz (532,7 ming bosh), qo'y va echkilar 102,1 foiz (4727,5 ming bosh), otlar 104,9 foiz (34,2 ming bosh), parrandalar 102,5 foizni (5913,0 ming boshni) tashkil etdi.

### 2022- yil 1- iyul holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni


	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
<b>Yirik shoxli qoramol</b>	<b>1649,9</b>	<b>102,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	87,2	126,7
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	1541,7	101,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	21,0	102,9
<b>ulardan sigirlar</b>	<b>532,7</b>	<b>102,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	32,8	131,2

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	493,1	101,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,8	117,2
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>4727,5</b>	<b>102,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	350,3	121,8
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	4091,6	100,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	285,6	101,5
<b>Otlar</b>	<b>34,2</b>	<b>104,9</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	4,5	132,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	28,2	101,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,5	109,8
<b>Parrandalar</b>	<b>5913,0</b>	<b>102,5</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	212,8	112,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	4269,2	102,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1431,0	101,8


Umumiy bosh songa nisbatan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 93,4 foizni, fermer xo'jaliklarida 5,3 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 92,6 va 6,2 foizni, qo'yalar va echkilar 86,5 va 7,4 foizni, parrandalar 72,2 va 3,6 foizni tashkil qildi.

**2022- yil 1- iyul holatiga hududlar kesimida  
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


**Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)**




**shu jumladan: sigirlar (ming bosh)**



**Qo‘ylar va echkilar (ming bosh)**



**Parrandalar (ming bosh)**



2022- yilning yanvar-iyunida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 142,6 ming tonna go‘sht (2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 100,8 foiz), 547,5 ming tonna sut (101,0 foiz), 242,1 mln. dona tuxum (102,3 foiz) ishlab chiqarildi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 98,7 foiz, sut ishlab chiqarishda 99,3 foiz, tuxum ishlab chiqarishda 67,8 foizni tashkil etdi.



#### **2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

	<i>miqdori</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>
--	----------------	--------------------------

<b>Go‘sht (tirik vaznda), ming tn.</b>	<b>142,6</b>	<b>100,8</b>
--	--------------	--------------

*shu jumladan:*

Fermer xo‘jaliklari	3,0	121,0
---------------------	-----	-------

Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	137,7	100,2
---	-------	-------

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,9	129,2
--	-----	-------


<b>Sut, ming tn.</b>	<b>547,5</b>	<b>101,0</b>
----------------------	--------------	--------------

*shu jumladan:*


Fermer xo‘jaliklari	16,7	118,7
---------------------	------	-------

	<i>migdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	527,0	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,8	152,1
<b>Tuxum, mln. dona</b>	<b>242,1</b>	<b>102,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	6,9	126,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	157,2	101,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	78,0	102,1

**2022- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**



### Tuxum (mln. dona)




**Fermer xo‘jaliklari.** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 2553,7 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 113,5 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 20,5 foizni tashkil etdi. Dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2321,6 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 113,1 foizni, chorvachilik mahsulotlarining hajmi 232,0 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 117,9 foizni tashkil qildi.

**Hosil yig‘imi.** 2022- yil yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklar tomonidan 19111 tonna sabzavot (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (102,3 foiz) 8560 tonna kartoshka (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (108,0 foiz), 11363 tonna oziqbob poliz (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (115,1 foiz), 18735 tonna meva va rezavorlar (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (100,4 foiz), 3889 tonna uzum (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (117,4 foiz) yig‘ib olindi. Bundan tashqari 491446 tonnadan ortiq don ekinlari (115,9 foiz ) yetishtirildi.

**2022- yil yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

	2021- yil yanvar-iyun		2022- yil yanvar-iyun		2021- yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Don	423866	82,0	491446	80,8	115,9
Kartoshka	7929	7,8	8560	8,3	108,0
Sabzavotlar	18673	11,5	19111	11,7	102,3
Poliz	9874	29,3	11363	31,9	115,1
Meva va rezavorlar	18651	35,5	18735	35,3	100,4
Uzum	3311	52,3	3889	56,1	117,4

**Yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari**



**Chorvachilik.** 2022- yilning yanvar-iyunida fermer xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 3020 tonna go‘sht (2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 121,0 foiz), 16703 tonna sut (118,7 foiz), 6872 ming dona tuxum (126,4 foiz) ishlab chiqarildi.

**Fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari**

	2021- yil yanvar-iyun		2022- yil yanvar-iyun		2021- yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida
	tonna	ishlab chiqarish umumiyligi hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiyligi hajmidagi ulushi, foiz	
Go‘sht	2496	1,8	3020	2,1	121,0
Sut	14075	2,6	16703	3,1	118,7
Tuxum, ming dona	5434,8	2,3	6872	2,8	126,4

2022- yilning 1- iyul holatiga fermer xo‘jaliklarida 87,2 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 32,8 ming bosh sigir, 350,3 ming bosh qo‘y va echkilar, 4,6 ming bosh ot, 212,8 ming bosh parrandalar mavjud.

**Yanvar-iyun holatiga fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari**

